

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA TA‘LIM MARKAZI**

**2013–2014-O‘QUV YILIDA UMUMIY  
O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARINING 5–6-SINF  
O‘QUVCHILARI UCHUN MATEMATIKA, ADABIYOT,  
XORIJIY TIL, RUS TILI, BOTANIKA, TARIX  
FANLARIDAN BOSQICHLI NAZORAT IMTIHON  
MATERIALLARI VA METODIK  
TAVSIYALAR TO‘PLAMI**

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent–2014

*Imtihon materiallari va tavsiyalar Respublika Ta'lim markazi qoshidagi ilmiy-metodik kengashlar tomonidan muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.*

*Maktab metodbirlashmalari imtihon biletlariga 15–20 % hajmda o'zgartirishlar kiritishi mumkin.*

#### **Tuzuvchilar:**

##### **5-SINF**

##### **MATEMATIKA**

*L.N. Ten* – RTM, «Aniq va tabiiy fanlar» bo'limining bosh metodisti.

*J.B.Abduraxmanova* – Aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi.

##### **RUS TILI**

*U.Yaminova* – RTM, xorijiy tillar bo'limi bosh metodisti.

##### **ADABIYOT**

*K.Usmonova* – RTM, filologiya fanlari bo'limi bosh metodisti.

##### **6-SINF**

##### **XORIJIY TIL**

*I.Matniyozova* – RTM, Xorijiy tillar bo'limi boshligi

*Sh.Boboyeva* – RTM, Xorijiy tillar bo'limi ingliz tili bosh metodisti

##### **TARIX**

*M.Xolboyeva* – RTM, ijtimoiy, iqtisodiy bilim asoslari va ma'naviy ma'rifiy ishlar bo'limi bosh metodisti

##### **BOTANIKA**

*I.Saparboyev* – RTM, Respublika ta'lim markazi, biologiya fani metodisti.

*B.Raximova* – Yunusobod tumanidagi 105-sonli maktabning biologiya fani o'qituvchisi

#### **Nashr uchun mas'ul**

*N. Turdiyev*

**Imtihon materiallarini ko'paytirib tarqatish ta'qiqlanadi.**

---

---

## 5-SINF

### MATEMATIKA

O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinflarida matematika fanidan bosqichli nazorat imtihon yozma ish shaklida, tavsiya etilgan topshiriq variantlari asosida o'tkaziladi.

Bosqichli nazorat imtihoni uchun matematikadan taqdim etilgan ishlar ikki variantda berilgan. Mazkur topshiriqlar 5-sinfda o'quvchilar ega bo'lishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish uchun xizmat qiladi.

Bosqichli nazorat imtihoniga 2 astronomik soat ajratiladi.

Matematika fani chuqurlashtirib o'tiladigan maktab (sinf) ma'muriyati maktab matematika o'qituvchilari metodik birlashmasi qarori bilan 5-sinf o'quv dasturiga mos keladigan bittadan qo'shimcha topshiriq kiritishlari lozim. Shuning uchun topshiriq yechimlarini izohlab yozishlariga qo'shimcha (30 daqiqa) vaqt beriladi.

Imtihon boshlanishidan oldin imtihon komissiyasining raisi 5 ta muhrlangan konvertlarni stol ustiga qo'yadi.

Sinf o'qituvchilaridan biri ushbu konvertlardan bittasini tanlaydi va konvert muhri buzilmaganligiga ishonch hosil qilganidan so'ng sinf o'quvchilari oldida konvertni ochadi va 2 variantdan iborat topshiriqning raqamini e'lon qiladi.

O'qituvchi doskada topshiriqning ikkala variantini yozadi va chap qatorda o'tirdan o'quvchilar 1-variantni, o'ng qatordagi o'quvchilar 2-variantni yechishlarini tushuntiradi.

So'ng o'qituvchi har bir variant topshiriqlarini tushuntirib, yozma ishni yozishga qo'yiladigan talablarni aytib o'tadi.

Yozma ishga ajratilgan vaqt e'lon qilinib, doskada imtihonni boshlanish va tugash vaqti yozib qo'yiladi.

O'quvchilarning yozma ishlari 5 ballik baholash tizimi asosida baholanadi.

#### **Bosqichli nazoratda o'quvchilarning matematikadan yozma ishlarini baholash mezonlari**

<b>№</b>	<b>Yechimning to'g'riligi / noto'g'riligi</b>	<b>ball</b>
1	Har qanday to'g'ri yechim uchun; mantiqiy fikrlash va yechimni asoslashda xatoga yo'l qo'yilmasa; javobga mos chizma to'g'ri bajarilsa hamda yozma ishga qo'yilgan barcha talablarga mos kelsa.	5
2	Har qanday to'g'ri yechim uchun, lekin hisoblashdagi kamchiliklar va 1–2 ta juziy xatolar uchun.	4
3	Topshiriqni bajarishda qo'pol xatoliklar va hisoblashdagi kamchiliklarga yo'l qo'yanligi, javobga to'g'ri erishilmaganligi uchun.	3

4	O'quvchining bajargan ishida bo'shliqlar juda ko'p bo'lgani sababli to'g'ri javobga erishilmagani, lekin yechimda to'g'ri goya borligi ichun.	2
5	Matematika nuqtai nazardan yechish boshlangan, lekin hisoblashda qo'pol xatolarga yo'l qo'yish natijasida noto'g'ri javob hosil qilingani va yechish izohlanmagani uchun.	1

## Matematika 5-sinf

### I TOPSHIRIQ

#### 1-VARIANT

1. Ifodaning qiymatini toping:  $652-31 \cdot 16+4888:(352-164)$ .
2. Tenglamani yeching:  $(x-1\frac{8}{9})+3\frac{7}{9}=4\frac{4}{9}$ .
3. Birinchi 3 soatda avtomobil 85,58 km/soat tezlik bilan, keyingi 2 soat 90,07 km/soat tezlik bilan, qolgan 5 soatni 80,3 km/soat tezlik bilan yurdi. Avtomobilning o'rtacha tezligini toping.
4. Ifodani soddalashtiring:  $26x+15x+24x-15$ .
5. To'g'ri to'rtburchak shaklidagi yer uchastkasi atrofiga to'siq sifatida butalar ekilgan, maydonning kengligi 20 m 8 dm, uzunligi esa undan 145 dm ga katta. Butalar necha metr uzunlikda ekilgan?

#### 2-VARIANT

1. Ifodaning qiymatini toping:  $9680:242+46 \cdot (249-76)-962$ .
2. Tenglamani yeching:  $(x+2\frac{9}{11})-4\frac{10}{11}=1\frac{4}{11}$
3. Birinchi 3 soatda avtomobil 85,62 km/soat tezlik bilan, keyingi 2 soat 95,03 km/soat tezlik bilan, qolgan 5 soatni 90,8 km/soat tezlik bilan yurdi. Avtomobilning o'rtacha tezligini toping.
4. Ifodani soddalashtiring:  $m+m+10m+3$ .
5. To'qilgan ro'molning bo'yi 8 dm 3 sm, eni esa undan 15 sm ga qisqa. Shu ro'molning chetini zar ip bilan tikib chiqish uchun necha detsimetr ip kerak bo'ladi?

### II TOPSHIRIQ

#### 1-VARIANT

1. Ifodaning qiymatini toping:  $6,56 \cdot 4,36-3,36:(0,736+2,464)-20,0424$
2. Tenglamani yeching:  $(x-348)+159=601$ .
3. Yuzi 600 gektar bo'lgan dalaga ishlov berish uchun uni uchta brigada orasida shunday bo'lib olishdiki, natijada ikkinchi brigadaga birinchisidan 3 marta ko'p, uchinchi brigadaga birinchisidan 2 marta ko'p yer tegdi. Har bir brigada qancha gektar yerga ishlov berishi kerak?
4.  $\frac{*+5}{3-*}$  berilgan kasr noto'g'ri kasr bo'lishi uchun yulduzchalar

o'rniga qanday bir xil raqamlarni qo'yish mumkin? Barcha shunday kasrlarni yozing.

5. Uzunligi 11,6 m va kengligi 8,7 m bo'lgan maydonchani bo'yi 4,35 dm va eni 2,9 dm bo'lgan plitalar bilan qoplash kerak. Butun maydonni qoplash uchun 750 ta plita yetadimi?

## 2-VARIANT

1. Ifodaning qiymatini toping:

$$(32,24 \cdot 0,32 + 366,032 \cdot 0,1) : 2,3 - 18,6388.$$

2. Tenglamani yeching:  $(x-385)+269=475$

3. Mo'ynachilik artelida quyon, olmaxon va tulki terilaridan, jami 545 ta teri bor. Quyon terisi tulki terisidan 5 marta ko'p, olmaxon terisi esa 143 ta. Artelda nechta quyon terisi bor?

4.  $\frac{2^*}{**+4}$  berilgan kasr to'g'ri kasr bo'lishi uchun yulduzchalar o'rniga qanday bir xil raqamlarni qo'yish mumkin? Bu kasrlarni yozing.

5. Uzunligi 17,4 m va kengligi 6,25 m bo'lgan zal polini tomoni 5 dm bo'lgan kvadrat plitalar bilan qoplash kerak. Butun polni qoplash uchun nechta plita kerak bo'ladi?

## III TOPSHIRIQ

### 1-VARIANT

1. Ifodaning qiymatini toping:

a)  $9\frac{13}{19} + (8\frac{18}{19} - 3\frac{15}{19})$ ;

b)  $10\frac{4}{21} - (4\frac{10}{21} - 3\frac{19}{21})$ ;

2. Tenglamani yeching:  $8 \cdot (112 - 5x) = 816$ .

3. Ikki qirg'oq orasidagi masofa 24 km. O'z tezligi 10 km/soat bo'lgan motorli qayiq bir qirg'oqdan ikkinchisiga borib qaytib kelishi uchun qancha vaqt sarflaydi? Bunda daryo oqimining tezligi 2 km/soat.

4. Koordinata nurida birlik kesma sifatida daftarning bir katagi uzunligini olib, C(4), D(6), E(8) va F(11) nuqtalarni belgilang. Shu nurda koordinatasi natural son bo'lib, 11 dan katta va 13 dan kichik bo'lgan  $M$  nuqtani belgilang.

5. Uzunligi 0,8 m, kengligi 0,6 m, balandligi 0,45 m bo'lgan akvariumga suv solingan. Suvning sathi akvariumning tepa qirrasidan 0,05 m pastda. Akvariumdagi suvning hajmini toping.

### 2-VARIANT

1. Ifodaning qiymatini toping:

a)  $8\frac{7}{9} + (7\frac{5}{9} - 4\frac{4}{9})$ ;

b)  $11\frac{2}{19} - (3\frac{17}{19} + 6\frac{14}{19})$ .

2. Tenglamani yeching:  $14 \cdot (3x - 15) = 252$ .

3. Ikki qirg'och orasidagi masoga 36 km. O'z tezligi 15 km/soat bo'lgan kater bir qirg'ochdan ikkinchisiga borib qaytib kelishi uchun qancha vaqt sarflaydi? Bunda daryo oqimining tezligi 3 km/soat.

4. Koordinata nurida birlik kesma sifatida daftarning bir katagi uzunligini olib, M (13), N (9), D (6) va K (1) nuqtalarni belgilang. Shu nurda koordinatasi natural son bo'lib, 12 dan kichik va 10 dan katta bo'lgan  $X$  nuqtani belgilang.

5. Uzunligi 0,75 m, kengligi 0,4 m, balandligi 0,48 m bo'lgan akvariumga suv solingan. Suvning sathi akvariumning tepa qirrasiga 0,08 m yetmaydi. Akvariumdagi suvning hajmini toping.

## IV TOPSHIRIQ

### 1-VARIANT

1. Ifodaning qiymatini toping: a)  $35^2 - 34 \cdot 32$ ; b)  $(14 + 16^2) : 15$

2. Tenglamani yeching:  $6,2x - 1,8x = 22,42 - 4,6$ .

3. Do'konga 2500 kg pomidor keltirildi. Birinchi kuni barcha pomidorlarning 30 % i sotildi. Yana necha kilogramm pomidor sotilishi kerak?

4. Yaxlitlang: a) 5,447; 18,2783 va 4,45 ni o'ndan birlargacha;

b) 35,673; 4,3857 va 0,0888 ni yuzdan birlargacha.

5. To'g'ri to'rtburchakning yuzi  $192 \text{ sm}^2$ , bu to'g'ri to'rtburchakning bir tomoni uzunligi 16 sm. To'g'ri to'rtburchakning perimetrini toping.

### 2-VARIANT

1. Ifodaning qiymatini toping:

a)  $28^2 - 27 \cdot 25$ ; b)  $(21^2 + 53) : 26$

2. Tenglamani yeching:  $5,4x - 2,6x = 10,84 - 2,3$

3. Maktabda 400 ta o'quvchi bor, ularning 52 % ini qizlar tashkil qiladi. Maktabda nechta o'g'il bola o'qiydi?

4. Yaxlitlang: a) 7,893; 14,551 va 0,537 ni o'ndan birlargacha;

b) 24,512; 4,875 va 0,0678 ni yuzdan birlargacha.

5. To'g'ri to'rtburchakning yuzi  $238 \text{ sm}^2$ , bu to'g'ri to'rtburchakning bir tomoni uzunligi 17 sm. To'g'ri to'rtburchakning perimetrini toping.

## V TOPSHIRIQ

### 1-VARIANT

1. Ifodaning qiymatini toping:

a)  $0,5^3 + 0,375$ ; b)  $4^3 - 3,5^2$ ; d)  $0,9^3 \cdot 0,09$ .

2. Tenglamani yeching:

$$\frac{5}{9} + (x - \frac{2}{9}) = \frac{7}{9}$$

3. Bekaning 20 ta tovuq va jo'jalari bor edi. Tovuqlar jo'jalardan 4 marta kam. Bekaning qancha jo'jasi bo'lgan?

4. a) Kasrlarning butun qismini ajrating:  $\frac{20}{3}$  va  $\frac{27}{5}$ .

b) Kasrlarni taqqoslang:  $\frac{12}{17}$  va  $\frac{15}{17}$ ;  $\frac{5}{8}$  va  $\frac{3}{8}$

5. ADC va KDS burchaklar DC umumiy tomonga ega. Agar  $\angle ADC=130^\circ$  bo'lsa, ADK burchakning gradus o'lchovini toping.

## 2-VARIANT

1. Ifodaning qiymatini toping:

a)  $0,4^3+1,036$ ; b)  $3^3-2,5^2$ ; d)  $0,7^3 \cdot 0,07$ .

2. Tenglamani yeching:  $(x + \frac{1}{7}) - \frac{4}{7} = \frac{2}{7}$ .

3. Bekaning 16 ta o'rdak va o'rdakchalari bor edi. O'rdaklar o'rdakchalardan 3 marta kam. Bekaning qancha o'rdagi bo'lgan?

4. a) Kasrlarning butun qismini ajrating:  $\frac{18}{5}$  va  $\frac{37}{4}$ .

b) Kasrlarni taqqoslang:  $\frac{13}{18}$  va  $\frac{11}{18}$ ;  $\frac{5}{9}$  va  $\frac{7}{9}$ .

5. DAC va BAC burchaklar AC umumiy tomonga ega. Agar  $\angle DAC=120^\circ$ ,  $\angle BAC=50^\circ$  bo'lsa, DAB burchakning gradus o'lchovini toping.

---

---

## 5 КЛАСС

### РУССКИЙ ЯЗЫК

Переводный экзамен по русскому языку в 5 классе школ с узбекским и другими языками обучения проводится в устной форме.

Цель проведения экзамена – проверить знание языкового материала, изученного в 5 классе.

Билеты включают в себя по три задания:

1-е – на проверку уровня усвоения изученного в течение учебного года грамматического материала;

2-е – на проверку умений и навыков беглого, правильного, сознательного чтения, ответы на вопросы по содержанию текста; (тексты из программного материала заранее подбирает учитель, а также составляет к ним по 3 вопроса);

3-е – на проверку уровня умений и навыков применения полученных знаний при составлении собственных высказываний по описанным темам и ситуациям. Объём высказываний 25–30 слов (5–7 предложений).

Запечатанные и проштампованные конверты с экзаменационными материалами вскрываются в начале экзамена в присутствии всех учеников, о чём составляется акт. На подготовку учащихся к ответам отводится 15–20 минут.

За выполнение заданий выставляется одна общая оценка. После проведения экзамена результаты объявляются в присутствии всех учащихся.

#### Критерии оценки устных ответов учащихся

«5»	Выставляется: – если объём высказывания учащегося соответствует требованиям программы, если высказывание полностью соответствует заданиям. Допускается не более 1–2 речевых ошибок.
«4»	– если высказывание соответствует заданиям, при этом допущено более 3–5 речевых ошибок.
«3»	– если объём высказывания недостаточно полный, но соответствует заданиям, при этом допущено не более 6–9 речевых ошибок.
«2»	– если объём высказывания неполный, высказывание не соответствует заданиям, допущено 10 и более речевых ошибок.
«1»	– если учащийся не сумел ответить ни на одно задание, составить ни одной фразы.

**Примечание:** Под речевой ошибкой, понимается ошибка общая для устной и письменной речи, которая ясно воспринимается на слух («светлый



комната», «пёт воду», «читать книга» и т.д.). В число подсчитываемых на слух ошибок включаются лексические и грамматические.

### Примерный текст для второго задания

#### Золотой луг

Мы жили в деревне. Перед окном у нас был луг, весь золотой от цветущих одуванчиков. Это было очень красиво.

Однажды я рано встал удить рыбу и заметил, что луг был не золотой, а зелёный. Когда же я возвращался около полудня домой, луг был опять весь золотой. Я стал наблюдать. К вечеру луг опять стал зелёный. Я сорвал одуванчик. Оказалось, что он сжал свои лепестки. Утром взошло солнце, и я увидел, как одуванчики раскрывают свои лепестки.

От этого весь луг становится золотым.

(По М.Пришвину)

#### Вопросы:

1. О каких цветах говорится в тексте?
2. Почему луг становился золотым?
3. Когда луг опять становился зелёным?

#### Билет № 1

1. Назовите слова, которые отвечают на вопрос *что?*

*Ручка, мальчик, ученик, ученица, дневник, сумка, письмо, бабушка, диван, стул, кошка, заяц, собака.*

2. Прочитайте текст «Четыре бабочки». Ответьте на вопросы.
3. Расскажите, какие телепередачи вам нравятся.

#### Билет № 2

1. Опишите эти предметы, назвав их признаки по цвету, величине, материалу.

*Мяч. Костюм.*

2. Прочитайте текст «Конструктор «Лего». Ответьте на вопросы.
3. Расскажите, кем вы хотите стать.

#### Билет № 3

1. Прочитайте предложения, употребив слова в скобках в нужном падеже.

*У Акрома нет (велосипед).*

*У Оли нет (мяч).*

2. Прочитайте текст «Тополя». Ответьте на вопросы.
3. Расскажите о своих родителях, братьях и сёстрах: кому сколько лет?

#### Билет № 4

1. Прочитайте предложения, употребив слова в скобках в нужном падеже.

*На столе не было (книги) и (журналы).*

*В магазине не было (бананы).*

2. Прочитайте текст «Солнышко, похожее на маму» (по А. Павловой). Ответьте на вопросы.

3. Расскажите, каких животных вы видели в зоопарке.

### Билет № 5

1. Ответьте на вопросы отрицательно.

***В автобусе есть свободное место?***

***У брата есть голубая рубашка?***

2. Прочитайте текст «Котёнок» (по И.Сафонову). Ответьте на вопросы.

3. Расскажите, что вы знаете о Красной книге.

### Билет № 6

1. Прочитайте предложения, употребив слова в скобках в нужном падеже.

***(Моя сестра) двенадцать лет.***

***(Мой младший брат) 6 лет.***

2. Прочитайте текст «Поход» (по С.Галиевой). Ответьте на вопросы.

3. Расскажите, какие мультфильмы вам нравятся.

### Билет № 7

1. Прочитайте предложения, употребив слова в скобках в нужном падеже.

***В парке я встретила (подруга) и её (брат).***

***На картине я вижу (гора) и (речка).***

2. Прочитайте текст «Ёжик» (по В.Осеевой). Ответьте на вопросы.

3. Расскажите, какие книги вы прочитали в этом году, о чём вы узнали.

### Билет № 8

1. Прочитайте предложения, употребив слова в скобках в предложном падеже.

***В документальном фильме рассказывали (дикие животные).***

***Учитель говорил (выставке).***

***Друзья спорили (футбольный матч).***

2. Прочитайте текст «Белка» (по В. Чаплиной). Ответьте на вопросы.

3. Расскажите о празднике «Навруз».

### Билет № 9

1. Закончите предложения.

***На доске пишут ...***

***В тетради пишут ...***

***В альбоме рисуют ...***

2. Прочитайте текст «Как я ловил рыбу» (по М.Скребцовой). Ответьте на вопросы.

3. Расскажите о национальной борьбе «Кураш».

### Билет № 10

1. Прочитайте предложения, употребив нужные окончания.

***Мы подъехали к зоопарк.. .***

***Азиза поехала к бабушк.. .***

***Лодка плывёт по рек.. .***

2. Прочитайте текст «Сказка о солнечном зайчике» (С.Пригов). Ответьте на вопросы.

3. Расскажите о книге, которую вы прочитали в этом году.

### Билет № 11

1. Прочитайте предложения, употребив слова в скобках в нужном падеже.  
**Сайёра рисует апельсины (оранжевые краски).**  
**Овощи надо чистить (острый нож).**
2. Прочитайте текст «Как светит солнце» (по В. Степанову). Ответьте на вопросы.
3. Расскажите о своём друге (подруге).

### Билет № 12

1. Прочитайте предложения, употребив слова в скобках в нужном падеже.  
**Ученики написали сочинение о (дикие животные).**  
**Умид рассказывает о (школьная футбольная) команда.**
2. Прочитайте текст «Приключение кота-разбойника» (по М.Кузнецову).
3. Ответьте на вопросы. Расскажите, кем вы хотите стать.

### Билет № 13

1. Прочитайте предложения, употребив нужные окончания.  
**Коля рассказывал о футбольн.. матч.. .**  
**Учитель рассказал об историческ.. памятниках Самарканда.**
2. Прочитайте текст «Доброе облако» (по В.Сабурову). Ответьте на вопросы.
3. Расскажите о профессии, которая вам нравится.

### Билет № 14

1. Прочитайте, вставив вместо точек местоимения **мой (моя), твой (твоя).**  
**... учитель, ... отец, ... бабушка, ... дедушка, ... мама, ... брат, ... сестра, ... котёнок, ... собака.**
2. Прочитайте текст «Конструктор «Лего». Ответьте на вопросы.
3. Расскажите о Дне независимости Республики Узбекистан.

### Билет № 15

1. Прочитайте одушевлённые существительные.  
**Книга, парта, друг, школьник, карандаш, лиса, тигр, велосипед, дядя.**
2. Прочитайте текст «Приключение кота-разбойника» (по М.Кузнецову). Ответьте на вопросы.
3. Расскажите о флаге, гербе и гимне Республики Узбекистан.

### Билет № 16

1. Опишите эти предметы, назвав их признаки по вкусу, запаху, цвету.  
**Яблоко. Лимон. Перец.**
2. Прочитайте текст «Кто вырастил ягоду?» (А.Лопатина). Ответьте на вопросы.
3. Расскажите о празднике «Навруз».

### Билет № 17

1. Прочитайте данные слова, употребив их во множественном числе.  
**Ученик, учитель, брат, сестра, подруга, друг.**
2. Прочитайте текст «Как светит солнце» (по В. Степанову). Ответьте на вопросы.
3. Расскажите о любимом виде спорта.

### Билет № 18

1. Подберите к данным прилагательным антонимы.  
**Хороший –**  
**холодный –**  
**горький –**  
**новый –**  
**чистый –**  
**высокий –**
2. Прочитайте текст «Сказка о счастливом кактусе» (по М. Скребцовой).  
Ответьте на вопросы.
3. Расскажите о национальной борьбе «Кураш».

### Билет № 19

1. Подберите к данным прилагательным синонимы.  
**Большой –**  
**весёлый –**  
**грустный –**
2. Прочитайте текст «Ёжик» (по В.Осеевой). Ответьте на вопросы.
3. Расскажите о своей семье.

### Билет № 20

1. Прочитайте данные слова, употребив их в единственном числе.  
**Карандаши, братья, сёстры, подруги, друзья, деревья, моря.**
2. Прочитайте текст «Как я ловил рыбу» (по М.Скребцовой). Ответьте на вопросы.
3. Расскажите о том, что вы знаете о Красной книге.

### Билет № 21

1. Прочитайте предложения, употребив глаголы, данные в скобках, в прошедшем времени.  
**Умида (прочитать) интересную сказку. На уроке русского языка мы (учить) новые слова, (написать) упражнение. Фархад правильно (решить) задачу.**
2. Прочитайте текст «Солнышко, похожее на маму» (по А.Павловой).  
Ответьте на вопросы.
3. Расскажите о своей школе.

### Билет № 22

1. Прочитайте предложения, употребив слова в скобках в нужном падеже.

*Сестра купила (мама) цветы.*

*Брат позвонил (друг).*

*Дедушка купил (внук) игрушку.*

2. Прочитайте текст «Сказка о солнечном зайчике» (С.Пригов). Ответьте на вопросы.

3. Расскажите, какие телепередачи вам нравятся.

### Билет № 23

1. Ответьте на вопросы, указав адресат действия.

*Кому ты хочешь позвонить?*

*Кому ты подаришь цветы?*

*Кому ты помогаешь?*

2. Прочитайте текст «Четыре бабочки». Ответьте на вопросы.

3. Расскажите, каких животных вы видели в зоопарке.

### Билет № 24

1. Ответьте на вопросы, употребив глаголы простого будущего времени и глаголы сложного будущего времени.

*Когда ты прочитаешь эту книгу?*

*Какую книгу будешь читать потом?*

2. Прочитайте текст «Котёнок» (по И.Сафонову). Ответьте на вопросы.

3. Расскажите о том, что можно купить в магазине «Канцтовары».

### Билет № 25

1. Ответьте на вопросы, употребив данные глаголы в настоящем времени: *выполнять, отвечать, объяснять.*

*Что ты делаешь?*

*Что делает твой друг (подруга)?*

*Что делает учитель?*

2. Прочитайте текст «Доброе облако» (по В.Сабурову). Ответьте на вопросы.

3. Расскажите о своих родителях, братьях и сестрах: кто кем работает.

---

---

## ADABIYOT V SINIF

Davlat ta'lim standartida V sinf o'quvchilari o'quv dasturida berilgan ijodkorlar tarjimai holi, ularning asarlari, shuningdek, xalq og'zaki ijodi namunalari va boshlang'ich nazariy ma'lumotlar haqida bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishishi belgilangan. Xususan, matni ifodali o'qish, matn mazmunini o'z so'zlari bilan bayon eta olish, asar qahramonlari xatti-harakatlariga mustaqil munosabat bildirish ko'nikmasini egallashi, badiiy asarda tasvirlangan asosiy voqeani, lirik she'rlarda ifodalangan his-hayajonni bir qadar his etish, maqol, topishmoq, ruboiy, hikoya, qasida haqida dastlabki nazariy tushunchalarni bilish, dasturda tavsiya etilgan 6-7 she'riy asarni yodlash malakasiga ega bo'lishi kerak.

V sinfda bosqichli nazorat imtihoni og'zaki tarzda yil davomida adabiyot bo'yicha o'rganilgan mavzular asosida o'tkaziladi.

Bosqichli nazorat imtihon uchun savollar o'qib-o'rganilgan asarlar, nazariy ma'lumotlar hamda yod olingan asarlar bo'yicha ikki qismdan iborat qilib tuzildi.

O'quvchi o'zi tanlagan bilet bo'yicha savol va topshiriqlarga javob beradi.

Og'zaki sinovni baholash quyidagi bilim, ko'nikma, malaka elementlari va me'yorlardan foydalangan holda amalga oshiriladi:

1. Ijodkorlarning asarlari mazmunini tushungan bo'lsa, fukrlarini asardan parcha keltirib isbotlansa, nutqi aniq, lo'nda va ravon bo'lsa, nazariy ma'lumotlarni bilsa, fikrini mustaqil va ijodiy bayon etsa, nasriy yoki she'riy matni talaffuz me'yorlariga (urg'u va mantiq qoidalariga) amal qilgan holda o'qisa – **5 ball** qo'yiladi.

2. Asar va uning qahramonlariga mustaqil munosabat bildirsa, asarlar mazmunini tushungan bo'lsa, fukrlarini mustaqil bayon etsa, asardan parcha keltirib asoslansa, asar mazmunini to'liq ifodalashga harakat qilsa, – **4 ball** qo'yiladi.

3. Asarni to'liq o'qimaganligi sezilsa, asar va uning qahramonlariga munosabat bildirishda mustaqil fikrlash malakasi, nutq ravonligi yetishmasa, nasriy va she'riy matni o'qishda talaffuz me'yorlari biroz buzilsa – **3 ball** qo'yiladi.

4. Asar haqida to'liq tushunchaga ega bo'lmasa, nutqida adabiy nutq me'yorlariga rioya qilmasa, nasriy yoki she'riy matni o'qishda talaffuz me'yorlari buzilsa, fikrlarini mustaqil bayon etolmasa – **2 ball** qo'yiladi.

5. Asar bo'yicha umumiy ma'lumotnigina bilsa, asar qahramonlari haqida tushunchaga ega bo'lmasa, nutqi adabiy til me'yorlariga javob bermasa, nasriy yoki she'riy matni talab darajasida o'qimasa, fukrlarini mustaqil, ijodiy bayon etolmasa, matni yoddan o'qish ko'nikmasini egallamagan bo'lsa – **1 ball** qo'yiladi.

**Eslatma:**

Berilgan javoblar ko'rsatilgan me'yorlardan biroz farq qilsa ham, yuqoridagi mezonlarga asoslanilgan holda baholanadi.

**1-bilet**

1. Boburning hayoti va uning ruboyilari mavzusi haqida so'zlang.
2. Abdulla Oripovning «O'zbekiston» she'ridan parcha yod o'qing.

**2-bilet**

1. Nodar Dumbadzening «Hellados» hikoyasida bolalar hayoti, ular orasidagi munosabatlar, asardagi vatanparvarlik tuyg'usini misollar asosida gapiring.
2. Adabiyotning so'z san'ati ekanligini misollar keltirib tushuntiring.

**3-bilet**

1. Sa'diy Sheroziyning «Guliston» asari – o'zbek didaktik adabiyoti namunasi ekanligi, unda tasvirlangan insoniy sifatlarni tushuntiring.
2. Usmon Nosimning «Yur, tog'larga chiqaylik» she'ridan parchani ifodali yod o'qing.

**4-bilet**

1. Ezopning «Kiyik bilan tokzor» masali nima haqida va unda ilgari surilgan maqsadni so'zlang.
2. Muqimiyning «Sayohatnoma» sidan parchani yod o'qing.

**5-bilet**

1. «Uch og'a-ini botirlar» ertagida tasvirlangan botirlarning qaysi fazilatleri sizga yoqdi? Ertak voqealarini asoslangan holda tushuntiring.
2. Usmon Nosimning «Bolaligimga» she'rini yoddan ifodali o'qing.

**6-bilet**

1. «Susambil» ertagidagi jonivorlar obrazi va ularning mohiyati haqida so'zlang.
2. Mirtemirning «Bulut» she'rini ifodali yod o'qing.

**7-bilet**

1. O'.Hoshimovning «Dunyoning ishlari» qissasidan olingan boblarda Ona, o'g'il va boshqa obrazlarning jonli tasvir etilganligini tushuntiring.
2. Boburning «Ko'pdin berikim...» ruboiysini yod o'qing.

**8-bilet**

1. M.Shayxzodaning «Iskandar Zulqarnayn» ertak-dostonidagi Iskandar, Sartarosh va Cho'pon obrazlariga tavsif bering, dostonidan misollar keltirib izohlang.
2. Boburning «Kim yor anga ilm tolibi...» ruboiysini yod o'qing.

**9-bilet**

1. Hans Kristian Andersenning «Bulbul» ertagida tasvirlangan ezgulik va yomonlik o'rtasidagi kurashni misollar asosida izohlang.

2. Abdulla Oripovning «O‘zbekiston» she‘ridan parcha yod o‘qing.

### **10-bilet**

1. Jonatan Sviftning «Gulliverning sayohatlari» asari majoziy asar ekanligi va undagi qahramonlar tabiatidagi ijtimoiy illatlarning kulgiga olinishini so‘zlab bering.

2. Topishmoq va maqol janri haqida tushuncha bering.

### **11-bilet**

1. A.Sent-Ekzyuperining «Kichkina shahzoda» ertak-qissasida bolalar olamining mahorat bilan tasvir etilishi va Kichkina shahzoda obrazi haqida gapiring.

2. Darslikda berilgan xalq maqollaridan yod ayting va uning mazmunini sharhlang.

### **12-bilet**

1. Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» dostonida chin va yolg‘on so‘zning solishtirilishi, to‘g‘rilikning g‘olib kelishi, Sher bilan Durroj qismati haqida gapiring.

2. Muqimiy «Sayohatnoma» sidan parchani yod o‘qing.

### **13-bilet**

1. Mirkarim Osimning «Zulmat ichra nur» qissasidagi «Yoshlik ayyomining ilk bahori» «Yazd cho‘li» deb nomlangan lavhalarda Alisherning bolaligi va undagi kitobga bo‘lgan muhabbat, xayolot olamining kengligi, muhofazasining teranligini so‘zlab bering.

2. Boburning «Ko‘ngli tilagan murodig‘a...», ruboiysini yod o‘qing.

### **14-bilet**

1. G‘afur G‘ulom. «Mening o‘g‘rigina bolam» hikoyasida Birinchi jahon urushi davridagi xalq hayotining aks ettirilishi va bola, kampir, o‘g‘ri obrazlarining haqqoniy tasvirlanganligini izohlang.

2. Hamid Olimjonning «Oyguil bilan Baxtiyor» dostonidan parchani yod o‘qing.

### **15-bilet**

1. Usmon Nosirning hayoti va uning «Yur, tog‘larga chiqaylik», «Yo‘lchi», «Bolaligimga», «Yoshlik», «Yurganmisiz birga oy bilan», «Gulzor chaman...» she‘rlarida bolalar tabiatiga xos xususiyatlarning mahorat bilan tasvir etilganligini sharhlang.

2. Abdulla Oripovning «O‘zbekiston» she‘ridan parchani yod o‘qing.

### **16-bilet**

1. Mirtemirning «Bulut», «Shudring», «To‘rg‘ay», «Baliq ovi», «Qishlog‘im» she‘rlarida tabiatga mehr-muhabbatning ifoda etilishini tushuntiring.

2. Asqad Muxtor she‘rlaridan birini ifodali yod o‘qing.



### **17-bilet**

1. Asqad Muxtor she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari haqida gapiring.
2. Erkin Vohidovning «Nido» dostonidan parcha yod o'qing.

### **18-bilet**

1. Hamid Olimjonning «Oygul bilan Baxtiyor» dostonidagi asosiy qahramonlar, dostonidagi ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash haqida so'zlang.
2. Usmon Nosirning «Yur, tog'larga chiqaylik» she'rining mazmunini tushuntiring.

### **19-bilet**

1. Abdulla Qodiriyning «Uloqda» hikoyasida o'zbek bolalariga xos jihatlarning aks etganligini voqealarga tayanib izohlang.
2. Bobur «Tole yo'qi jonimg'a...» ruboiysini yod o'qing.

### **20-bilet**

1. Oybekning «Fonarchi ota», «Bolaning ko'ngli podsho» hikoyalaridagi fonarchi ota, bola va bobo obrazlarining o'ziga xos sifatlariga tavsif bering.
2. Erkin Vohidovning «Nido» dostonidan parchani yod o'qing.

### **21-bilet**

1. Boburning hayoti va ijodi haqida ma'lumot bering. Uning ruboiylarida muallif hayoti, orzulari, armonlarining tasvir etilganligini tushuntiring.
2. Hamid Olimjonning «Oygul bilan Baxtiyor» dostonidan parchani yod o'qing.

### **22-bilet**

1. Muqimiy «Sayohatnoma» janrining asoschisi. Asarning hajviy yo'nalishi, obrazlar tasvirini sharhlang.
2. Bobur «Kim yor anga ilm tolibi...» ruboiysini yod o'qing.

### **23-bilet**

1. Topishmoqlar xalq og'zaki ijodining o'ziga xos janri ekanligini misollar asosida sharhlang.
2. Mirtemirning «Qishlog'im» she'ridan parchani ifodali yod o'qing.

### **24- bilet**

1. Abdulla Avloniyning «Vatanni suymak», «Vatan» she'rlarida go'zal odob-axloqqa, yaxshilikka mayl, yomonlikdan hazar, el-yurtga, Vatanga muhabbat tuyg'ularining ifoda qilinganligini sharhlang.
2. Erkin Vohidovning «Nido» dostonidan parchani yod o'qing.

### **25-bilet**

1. Abdulla Oripovning «O'zbekiston» she'rida ona yurt o'tmishining g'oyat ta'sirli va millat tarixi bilan uyg'un holda tasvirlanganligini izohlang.
2. Usmon Nosirning «Yur, tog'larga chiqaylik» she'ridan parchani ifodali yod o'qing.

### **26-bilet**

1. Erkin Vohidovning «Nido» dostonida insoniyat boshiga tushgan falokat – Ikkinchi jahon urushi keltirgan balolarning murg‘ak o‘smir taqdirida qoldirgan izning aks ettirilishini misollar asosida izohlang.
2. Abdulla Oripovning «O‘zbekiston» she‘ridan parchani yod o‘qing.

### **27-bilet**

1. Maqollar, ularning qisqalik, ta‘sirchanlik, teranlik xususiyatlari, mavzu doirasini misollar keltirib izohlang.
2. Hamid Olimjonning «Oygul bilan Baxtiyor» dostonidan parchani yod o‘qing.

### **28-bilet**

1. «Uch og‘a-ini botirlar» ertagidagi to‘ng‘ich, o‘rtancha va kenja botirlarning dovyurakligini voqealardan misollar keltirib sharhlang.
2. Sinfdan tashqari o‘qigan badiiy asaringiz haqida so‘zlab bering.

### **29-bilet**

1. Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida ma‘lumot bering.
2. Boburning «Har kimki vafo qilsa...» ruboiysini yod o‘qing.

### **30-bilet**

1. Adabiyotning so‘z san‘ati ekanligini, badiiy so‘z qudratini shoir va yozuvchilar asarlari misolida tushuntiring.
2. Darslikda berilgan topishmoqlardan misollar keltiring va ularni izohlang.

---

## 6 -SINF

### XORIJIY (INGLIZ, NEMIS VA FRANSUZ) TIL

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 6-sinf oʻquvchilari uchun xorijiy tildan bosqichli nazorat imtihonlari ogʻzaki tarzda oʻtkaziladi. Bosqichli nazorat imtihonlarini oʻtkazishdan maqsad oʻquvchilarning xorijiy til taʼlimi boʻyicha olgan bilim, koʻnikma va malakalarini aniqlashdan iborat. Bosqichli nazorat imtihonini oʻtkazishda oʻquv dasturlari asosida 25 ta bilet tuzilib har bir biletida 2 tadan savol beriladi. Xorijiy tillar chuqurlashtirib oʻqitiladigan sinflar va maktablar uchun qoʻshimcha uchinchi topshiriq beriladi.

Birinchi savol biletlarda berilgan mavzu boʻyicha matni oʻqish va mazmunini gapirib berish. Bunda oʻquvchi matni oʻqib uning mazmunini xorijiy tilda tushintirib berishi kerak. Ikkita savolga tayyorgarlik uchun 20 daqiqa vaqt beriladi. Matn hajmi 200 soʻzdan iborat boʻlishi lozim. Biletlarda berilgan mavzular boʻyicha matnlarni darsliklar va qoʻshimcha adabiyotlardan olish mumkin.

Masalan matn quyidagicha boʻlishi mumkin:

#### Meals

Our family is not large. It consists of four members. But each member of our family has its own tastes and interests.

My brother is fond of sports. So early in the morning he does his morning exercises. That's why he has nothing to eat, as he knows it would be bad to eat before exercises. His breakfast usually consists of a cup of milk and sugar. My father usually has a bowl of cereal with a cup of tea follows by bread and butter. My mother has a light breakfast a cup of coffee or just youghurt and a grapefruit.

As for me I usually have a cup of tea with sugar, follows bread and butter or cheese. My mother always says it's important to have really good breakfast. We don't have our main meal at lunchtime. My parents usually have their lunch at work. And I have lunch at the school canteen.

Our evening meal is usually at 7 o'clock. We try to eat our main meal together. The main course is often meat with vegetables. Sometimes we eat plov or manti with delicious salads.

Ushbu matn 206 soʻzdan iborat. Bunda oʻquvchi : «5» ball olishi uchun ushbu matn maʼnosini 10 tadan kam boʻlmagan gaplar orqali tushuntirib berishi kerak.

Oʻquvchilarning olgan bilim, koʻnikma va malakalarini baholash uchun matn maʼnosini tushuntirib berishda ishlatgan gaplari soni hisobga olinadi. Gaplar grammatik va fonetik qoidalar asosida toʻgʻri va toʻliq, mavzudan chetlashmagan va mantiqan bir-biri bilan bogʻlangan boʻlishi kerak.

**Ikkinchi savol** biletlarda ko'rsatilgan mavzular yuzasidan suhbatlashish. Bunda o'quvchi shu mavzu yuzasidan o'z qiziqishlari va fikrlarini xorijiy tilda erkin bayon etishi kerak. O'quvchi tomonidan bildirilgan fikrlar grammatik jihatdan to'g'ri tuzilganligi, fonetik jihatdan to'g'ri talaffuz etilganligi, nutqining ravonligi, mavzudan chetlashmaganligi va bildirilgan fikrlarning mantiqan bir-biri bilan bog'liqligi hisobga olinadi. Fikrlar bayon etilayotganda so'z birikmalarining noto'g'ri ifodalanishi, grammatik va fonetik qoidalarga rioya qilmaslik hollari bir gapning o'zida ikki va undan ortiq kuzatilsa, o'sha gap hisobga olinmaydi. O'quvchi mavzuni yoritib bera olmasa o'qituvchi o'quvchiga mavzu yuzasidan 3 ta savol berishi mumkin. Har bir berilgan savolga javob 5 ballik tizim asosida baholanadi.

Masalan: 1-savolga 3 ball, 2-savolga 5 ball qo'yilsa, baholar umumlashtirilib, o'rtacha ball chiqariladi.  $3+5=8 : 2=4$  ball.

O'quvchilarni baholashda ball ular egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalardan kelib chiqib belgilanadi.

### **Berilgan matnni o'qib, mazmunini gapirib berish yuzasidan baholash mezozi**

№	Baholash mezozi	Ball
1	O'qilgan matn mazmunini to'liq og'zaki bayon qila olsa, mavzu yuzasidan fikr bildirsa va uni asoslay olsa, hamda to'g'ri talaffuz va intonatsia bilan gapirsa, o'qilgan matnni to'liq tarjima qila olsa, matn mazmuniga doir savollarga to'liq javob bera olsa	5
2	O'qilgan matn mazmunini qiyinchilik bilan og'zaki bayon qila olsa, fikr tor bildirilsa, to'g'ri talaffuz va intonatsia buzilsa, o'qilgan matnni 71-85 foiz tarjima qila olsa, matn mazmuniga doir savollarga javob bera olsa	4
3	O'qilgan matn mazmunini qisman qiyinchilik bilan og'zaki bayon qila olsa, fikr bildirila olmasa, to'g'ri talaffuz va intonatsiaga rioya qilmasa, o'qilgan matnni 55-70 foiz tarjima qila olsa, matn mazmuniga doir savollarga qisman javob bera olsa	3
4	O'qilgan matn mazmunini tushunarsiz tarzda bayon qilsa, fikr bildirila olmasa, to'g'ri talaffuz va intonatsiaga rioya qilmasa, o'qilgan matnni 21-54 foiz tarjima qila olsa, matn mazmuniga doir savollarga javob bera olsa	2
5	O'qilgan matn mazmunini bir-biri bilan bog'lanmagan jumlar bilan og'zaki bayon qila olsa, fikr bildirila olmasa, to'g'ri talaffuz va intonatsiaga rioya qilmasa, o'qilgan matnni tarjima qila olmasa, matn mazmuniga doir savollarga javob bera olmasa	1

### **Suhbatni baholash mezozi**

№	Baholash mezozi	Ball
1	Berilgan mavzuni to'liq og'zaki bayon qila olsa, mavzu yuzasidan fikr bildirsa va uni asoslay olsa, hamda to'g'ri talaffuz va intonatsia bilan gapirsa, berilgan mavzuga doir savollarga to'liq javob bera olsa	5

2	Berilgan mavzuni qiyinchilik bilan ogʻzaki bayon qila olsa, fikr tor bildirilsa, toʻgʻri talaffuz va intonatsiya buzilsa, berilgan mavzuga doir savollarga qiyinchilik bilan javob bera olsa	4
3	Berilgan mavzuni qisman qiyinchilik bilan ogʻzaki bayon qila olsa, fikr bildirilmasa, toʻgʻri talaffuz va intonatsiyaga rioya qilmasa, berilgan mavzuga doir savollarga qisman javob bera olsa	3
4	Berilgan mavzuni tushunarsiz tarzda bayon qila olsa, fikr bildirilmasa, toʻgʻri talaffuz va intonatsiyaga rioya qilmasa, berilgan mavzu mazmuniga doir savollarga tushunarsiz tarzda javob bera olsa	2
5	Berilgan mavzuni bir-biri bilan bogʻlanmagan jumlar bilan ogʻzaki bayon qila olsa, fikr bildirilmasa, toʻgʻri talaffuz va intonatsiyaga rioya qilmasa, matn mazmuniga doir savollarga javob bera olmasa	1

**6-sinflar uchun xorijiy (ingliz nemis va fransuz) tilidan bosqichli nazorat imtihon savollari**

**1-bilet**

1. «Oila» mavzusiga oid matnni oʻqish va mazmunini gapirib berish.
2. «Oʻzim haqimda» mavzusida suhbat.

**2-bilet**

1. «Oziq-ovqatlar» mavzusiga oid matnni oʻqish va mazmunini gapirib berish.
2. «Bizning maktab» mavzusida suhbat.

**3-bilet**

1. «Uy» mavzusiga oid matnni oʻqish va mazmunini gapirib berish.
2. «Mening oilam» mavzusida suhbat.

**4-bilet**

1. «Tugʻilgan kun» mavzusiga oid matnni oʻqish va mazmunini gapirib berish.
2. «Dasturxon atrofida» mavzusida suhbat.

**5-bilet**

1. «Taomlar» mavzusiga oid matnni oʻqish va mazmunini gapirib berish.
2. «Men sevgan mulʼtfilm qahramoni» mavzusida suhbat.

**6-bilet**

1. «Oʻzbek milliy taomlari» mavzusiga oid matnni oʻqish va mazmunini gapirib berish.
2. «Mening doʻstim» mavzusida suhbat.

**7-bilet**

1. «Yil fasllari» mavzusiga oid matnni oʻqish va mazmunini gapirib berish.
2. «Ertaklar olamida» mavzusida suhbat.

### **8-bilet**

1. «Hayvonot dunyosi» mavzusiga oid matnni o‘qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Orzuimdagi uy» mavzusida suhbat.

### **9-bilet**

1. «Bayramlar» mavzusiga oid matnni o‘qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Mening bo‘sh vaqtim » mavzusida suhbat .

### **10-bilet**

1. «Mening sevimli mashg‘ulotim» mavzusiga oid matnni o‘qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Kutubxonada» mavzusida suhbat.

### **11-bilet**

1. «Kundalik faoliyat» mavzusiga oid matnni o‘qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Tabiatga bo‘lgan munosabat» mavzusida suhbat .

### **12-bilet**

1. «Mening kechagi ish kunim » mavzusiga oid matnni o‘qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Hayvonlarga bo‘lgan munosabat» mavzusida suhbat .

### **13-bilet**

1. «Taom turlari» mavzusiga oid matnni o‘qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Bayramlarni nishonlashda qilinadigan ishlar» mavzusida suhbat.

### **14-bilet**

1. «Yovvoyi hayvonlar» mavzusiga oid matnni o‘qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Uy yumushlarini bajarishda onaga beriladigan yordam» mavzusida suhbat.

### **15-bilet**

1. «Do‘sti haqida» mavzusiga oid matnni o‘qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Maktabda» mavzusida suhbat.

### **16-bilet**

1. «Oziq-ovqat do‘konida» mavzusiga oid matnni o‘qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Bozorda» mavzusida suhbat.

### **17-bilet**

1. «Oila haqida» mavzusiga oid matnni o‘qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Sinfda» mavzusida suhbat.

### **18-bilet**

1. «Tabiat va iqlim» mavzusiga oid matnni o‘qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Yurtimizning diqqatga sazovor joylari» mavzusida suhbat.

### **19-bilet**

1. «Mening ona yurtim – O‘zbekiston» mavzusiga oid matnni o‘qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Tarjimai holim» mavzusida suhbat.

### **20-bilet**

1. «Mamlakatimiz poytaxti» mavzusiga oid matnni o‘qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Dasturhon atrofida» mavzusida suhbat.

### **21 bilet**

1. «Sayohat» mavzusiga oid matnni o‘qish va mazmunini gapirib berish.
2. Tili o‘rganilayotgan mamlakat shaharlari haqida suhbat.

### **22-bilet**

1. «O‘zbek milliy taomlaridan birini tayyorlash» mavzusiga oid matnni o‘qish va mazmunini gapirib berish.
2. Uy-ro‘zg‘or ishlari haqida suhbat.

### **23-bilet**

1. «Mamlakatimizning daryo, ko‘l, dengizlari» mavzusiga oid matnni o‘qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Oziq-ovqat do‘konida» mavzusida suhbat.

### **24-bilet**

1. «Hayvonlarga bo‘lgan munosabat» mavzusiga oid matnni o‘qish va mazmunini gapirib berish.
2. «O‘zi yashayotgan shahar (qishloq)» mavzusida suhbat qilish.

### **25-bilet**

1. «Men yoqtirgan narsalar» mavzusiga oid matnni o‘qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Men tug‘ilgan kun» mavzusida suhbat.

---

## 6-sinf

### TARIX

«Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o‘z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlarini tarixini bilishga, o‘zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu – tabiiy hol. Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o‘zi tug‘ilib voyaga yetgan qishloq, shahar, xullaski, Vatanning tarixini bilishni istaydi». Islom Karimov «Muloqot» jurnalining 1998 yil 5-soni.

Shunday ekan, yoshlarimizda tarixiy bilimlarni chuqurroq singdirish orqali ularda ona Vatanga muhabbat, Vatanni sevish va uni ko‘z qorachig‘idek asrash, avaylash kabi fazilatlar shakllanadi.

O‘quvchilar 6-sinf Tarix darsida Qadimgi davr sivilizatsiyalari haqida, qadimgi odamlarning geografik-hududiy joylashuvi va ularning ilk mashg‘ulotlari, qadimgi odamlarning mehnat qurollari, turmush tarzi, ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik mashg‘ulotlari, urug‘ jamoalari, qabilalar haqida, qadimgi Sharq xaritasi, qadimgi Misr, Ikki daryo oralig‘i, O‘rta dengiz sharqiy sohilidagi davlatlar to‘g‘risida, qadimgi davr sivilizatsiyalari- Hindiston, Xitoy, Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim taraqqiyoti, bu davlatlarning qadimgi davr taraqqiyot o‘choqlari bo‘lganligi, davlatlar joylashuvi, tarixiy-geografik holati, aholisi, turmush tarzi, ma‘naviy hayoti, madaniy hayot, yozuv, maktab, tabiiy va ijtimoiy fanlar, ilmiy bilimlar haqida, Mixxat, isroil yozuvlari, teatr, haykaltaroshlik, me‘morchilik, notiqlik san‘ati, qadimgi dunyo olimlari, yozuvchilari, tarixchilari to‘g‘risida, qadimgi davlatlar va xalqlarning siyosiy, savdo, madaniy aloqalari, urushlar-fir‘avnlari, hukmdorlar yurishlari, Ossuriya davlati, Yunoniston-Eron urushlari, makedoniyalik Aleksandr yurishlari, Rim hukmdorlari olib borgan urushlar haqida, shuningdek, qadimgi davrda O‘rta Osiyo hududida eng qadimgi hayot izlari, eng qadimgi odam manzilgohlari, ibtidoiy odam, mehnat mashg‘ulotlari, ibtidoiy odamlarning e‘tiqodlari, urug‘chilik jamoasi, mezolit va neolit davri mehnat qurollarining takomillashuvi, xo‘jalik sohalaridagi o‘zgarishlar to‘g‘risida, dehqonchilik, chorvachilik, san‘at va din to‘g‘risida, bronza davri makonlari, manzilgohlar, xo‘jalikning rivojlanishi, mehnat taqsimoti, hunarmandchilikning vujudga kelishi to‘g‘risida, hududda davlatchilikning tashkil topishi to‘g‘risida, temir asriga o‘tilishi, sug‘orma dehqonchilik manzilgohlari to‘g‘risida, Xorazm, Baqtriya, sug‘d davlatlari, sug‘dlar, massagetlar joylashgan geografik hudud, eng qadimgi shaharlar, eng qadimgi davrda O‘rta Osiyo hayoti, O‘rta Osiyo xalqlarining qadimgi fors va yunon bosqinchilariga qarshi kurashi to‘g‘risida, To‘maris, Shiroq, Spitamen jasoratlari, Doro hukmronligiga qarshi qo‘zg‘olonlar to‘g‘risida, Ahamoniyalar zulmining tugashi, makedoniyalik Aleksandr bosqini to‘g‘risida, Yunon-Baqtriya davlatining tashkil topishi, xo‘jalik madaniyati, xalqaro aloqalar, Xorazm, Kushon, Qang‘ va Dovon davlatlari xo‘jaligi,



madaniyati, davlat boshqaruvi to'g'risida, Buyuk Ipak yo'li, uning jahon siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarini rivojlantirishdagi o'rni to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lishlari nazarda tutilgan.

Bosqichli nazorat sinovi yuqoridagi maqsaddan kelib chiqib, o'quvchilarning butun yil davomida egallagan bilimlarini aniqlash uchun 2 ta savol va 1 atamadan tarkib topgan 30 ta biletdan iborat qilib tuzildi.

Biletning birinchi va ikkinchi savoli O'zbekiston va jahon tarixida mavjud bo'lgan eng qadimgi davlatlar tarixiga taalluqli bo'lib, 3-savol tarixiy atamadan iboratdir. Tarix fanining ajralmas qismi hisoblangan tarixiy termin va atamalarga ilk bor duch keladigan o'quvchilarning atamalar to'g'risidagi bilimlarini aniqlash muhimdir, chunki tilimizga kirib qolgan xalqaro terminlarning o'quvchi hayoti davomida keyinchalik ham duch kelishi e'tiborga olindi.

**O'quvchilarning 1- va 2-savol bo'yicha javoblari quyidagi mezon asosida baholanadi:**

– Muhim voqealarning sanasini ayta olishiga	1 ball
– Tarixiy voqealarning sabab va oqibatlarini bilishiga	1 ball
– Muhim voqeaning sodir bo'lgan joyini xaritadan ko'rsata olishiga	1 ball
– Tarixiy voqealarning mazmuni va ahamiyatini tushuntira olishiga	1 ball
– Voqea va hodisalarga o'zining munosabatini bildira olishiga	1 ball

**Uchinchi savol quyidagi mezon asosida baholanadi:**

– Tarixiy atamani to'g'ri talaffuz qila olishiga	1 ball
– Atamaga to'g'ri izoh bera olishiga	1 ball
– Atamaning qaysi davrga taalluqli ekanligini ayta olishiga	1 ball
– Atama qaysi davlatga taalluqli ekanligini ayta olishiga	1 ball
– Atamaning qaysi sohaga taalluqli ekanligini ayta olishiga	1 ball

Har bir javob alohida baholanadi va uchga bo'linadi.

Masalan:  $4+4+3=11:3=3,6$  bo'lsa, 4 baho qo'yish mumkin. Agar ballar soni 3,5dan kam bo'lsa 3 baho qo'yiladi.

Ko'p yillik tajribali va ijodkor o'qituvchilar tavsiya etilayotgan biletlarga Tarix fani metod birlashmasi qarori bilan 15–20%gacha o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritishlari mumkin.

Tarix faniga ixtisoslashtirilgan va chuqurlashtirib o'qitiladigan sinflar uchun esa dastur asosida murakkabroq savollar tuzilishi mumkin.

**Eslatma:** O'quvchilar bilet olganlaridan so'ng tayyorlanish uchun 15 daqiqa va javob berish uchun esa 10 daqiqa vaqt belgilanadi. Bosqichli nazorat sinovining yakuniy bahosi sinf jurnalining Tarix sahifasiga qo'yiladi.

**Imtihon biletleri**

**1-bilet**

1. Dastlabki sivilizatsiyalar qayerda paydo bo'la boshlagan?
2. Qadimgi dunyo tarixi qaysi davrgacha davom etgan?
3. Iyeroglif.

### **2-bilet**

1. Qaysi voqea yillarni hisoblashga asos qilib olingan?
2. O'рта Osiyo xalqlari tarixi haqida ma'lumot beruvchi manbalarga misollar keltiring.
3. Delta.

### **3-bilet**

1. Qadimgi Misrda ilmiy bilimlarning vujudga kelishi to'g'risida gapirib bering.
2. O'рта Osiyoda bronza davri manzilgohlariga misollar keltiring.
3. Fir'avn.

### **4-bilet**

1. Misr davlati qanday tashkil topgan?
2. O'рта Osiyoda ilk temir davrining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Papirus.

### **5-bilet**

1. Ahamoniy davlatining tashkil topishini aytib bering.
2. O'zbekistonning qadimgi aholisining etnik tarkibi va joylashuvini tasvirlab bering.
3. Varvar.

### **6-bilet**

1. Qadimgi Misrda piramidalar qurilishi haqida gapirib bering.
2. Zardushtiylik dini qanday vujudga kelgan?
3. Senat.

### **7-bilet**

1. Doro I islohotlari haqida gapirib bering.
2. Zardushtiylikning eng asosiy bosh g'oyasi nimadan iborat?
3. Respublika.

### **8-bilet**

1. G'arbiy Rim imperiyasining qulash sabablarini aytib bering.
2. O'рта Osiyoda eneolit va bronza davrlarining o'ziga xos xususiyatlarini bilasizmi?
3. Demokratiya.

### **9-bilet**

1. Ossuriya podsholigining yuksalgan davrini tasvirlab bering.
2. O'рта Osiyoda Yunon-Baqtriya podsholigining tashkil topishi haqida gapirib bering.
3. Koloniya.

### **10-bilet**

1. Qadimgi yunon afsonalariga misollar keltiring.
2. Qadimgi Dovon davlati qanday vujudga kelgan?
3. Konsul.

### **11-Bilet**

1. Rim armiyasi to'g'risida gapirib bering.
2. Mil.avv. I ming yillikda O'rta Osiyo xalqlarining harbiy san'ati to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Teatr.

### **12-bilet**

1. Qadimgi dunyoning yetti mo'jizasini sanab bering.
2. Miloddan avvalgi II–I asrlarda qadimgi Dovon va Xitoy munosabatlariga misollar keltiring.
3. Kandidat.

### **13-Bilet**

1. «Buyuk ipak yo'li»dan oldin qanday savdo yo'llari mavjud bo'lgan?
2. Ahamoniylar davrida O'rta Osiyoda davlat boshqaruvi qanday bo'lgan?
3. Pedagog.

### **14-Bilet**

1. Xammurapi qonunlari va uning ahamiyati haqida nimalarni bilasiz?
2. To'maris jasoratini so'zlab bering.
3. Forum.

### **15-Bilet**

1. O'rta Osiyoda bronza davrining asosiy xususiyatlarini aytib bering.
2. Teshiktosh yodgorligining jahon tarixidagi ahamiyati haqida gapirib bering.
3. Proviinsiya.

### **16-Bilet**

1. Buyuk Xitoy devorining qurilishi haqida hikoya qilib bering.
2. O'zbekistonda ilk dehqonchilik manzilgohlariga misollar keltiring.
3. Gladiator.

### **17-Bilet**

1. Yunon-fors urushlarining sabablari va oqibatlari to'g'risida so'zlab bering.
2. O'rta Osiyoda ilk qoyatosh rasmlarining paydo bo'lishiga misollar keltiring.
3. Akademiya.

### **18-Bilet**

1. Qadimgi Olimpiya o'yinlari to'g'risida so'zlab bering.
2. Kanishka hukmronligi davrida Kushon podshohligining rivojlanishi to'g'risida gapirib bering.
3. Triumf.

### **19-Bilet**

1. Gomer dostonlari haqida hikoya qilib bering.
2. O'zbekiston hududida paydo bo'lgan dastlabki yozuvlar to'g'risida nimalarni bilasiz.
3. Falanga.

### **20-Bilet**

1. Qadimgi Yunoniston maktablari to'g'risida hikoya qilib bering.
2. Sak va massaget qabilalarining yashagan hududlarini aytib bering.
3. Labirint.

### **21-Bilet**

1. Qadimgi yunon sivilizatsiyasi nima sababdan yo'qolib ketgan?
2. Qadimgi Xorazm davlatining taraqqiyoti haqida gapirib bering.
3. Agora.

### **22-Bilet**

1. Qadimgi Xitoy kashfiyotlari haqida nimalarni bilasiz?
2. O'zbekiston tarixida «Buyuk ipak yo'li» ning ahamiyati nimadan iborat?
3. Strateg.

### **23-Bilet**

1. Qadimgi tarixni o'rganish manbalariga misollar keltiring.
2. Xitoy manbalarida Dovon to'g'risida nimalar haqida ma'lumotlar berilgan?
3. Arxeologiya.

### **24-Bilet**

1. Antropologiya va Etnografiya fanlari nimalarni o'rganadi?
2. O'rta Osiyoda antik davr qachondan boshlangan?
3. Etnografiya.

### **25-Bilet**

1. Salavkiylar davlatining nomi qanday kelib chiqqan?
2. Kushon davlatiga qanday asos solingan?
3. Numizmatika.

### **26-Bilet**

1. Arxeologlarning ishlari to'g'risida hikoya qilib bering.
2. Kushon davlati madaniy yodgorliklariga misollar keltiring.
3. Sivilizatsiya.

### **27-Bilet**

1. Solon o'tkazgan islohotlarning ahamiyati to'g'risida gapirib bering.
2. Shiroq jasoratini so'zlab bering.
3. Meteklar.

### **28-Bilet**

1. Qadimgi yunon mutafakkirlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Kushon davlati yozuvlari haqida gapirib bering.
3. Aristokratiya.

### **29-Bilet**

1. Qadimgi Hindiston madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Qang' davlatining joylashgan o'rni va aholi mashg'ulotlari to'g'risida so'zlab bering.
3. Ritorika.

### **30-Bilet**

1. Qadimgi Rim madaniyati haqida so'zlab bering.
2. Spitamen jasoratini so'zlab bering.
3. Stil.

---

---

## BOTANIKA

### Soʻz boshi

Botanika fani umumtaʼlim maktablarining 6-sinfida tugatiladi. Kursni bitirgan oʻquvchilar botanikadan maʼlum bilim, koʻnikma va malakalarga ega boʻlishlari talab etiladi. Masalan:

– botanika fani mazmunida beriladigan asosiy biologik qonunlar va nazariyalarni bilish;

– oʻsimlikning ildizi, poyasi, bargi, vegetativ koʻpayishi, guli, mevasi va urugʻlari, oʻsimlik organlarining atrof-muhit bilan bogʻliqligi, oʻsimliklar sistemasi, oʻsimliklarning asosiy boʻlimlari, oʻsimliklar olamining rivojlanishi, oʻsimliklar qatlami, manzarali oʻsimliklar haqida bilimga ega boʻlish;

– tur, turkum, oila, sinf, boʻlim toʻgʻrisidagi asosiy sistematik birliklar tushunchalarini bilish;

– oʻsimliklarga nisbatan ehtiyotkorona munosobatda boʻlishning zarurligini bilish va unga amal qila olish;

– Oʻzbekistonda botanika fanining rivojlanish tarixini bilish;

– botanikaga oid bilimlardan turmushda va qishloq xoʻjaligi ishlarida foydalana olish.

Botanika fanidan bosqichli nazorat ogʻzaki soʻrov shaklida oʻtkaziladi. Har bir oʻquvchiga 3 tadan savol beriladi. Savollarning 2 tasi nazariy, 1 tasi amaliy mashgʻulotga oid boʻladi. Har bir berilgan savolga javob 5 ballik tizim asosida baholanadi. Baholar umumlashtirilib oʻrtacha baho chiqariladi. Masalan:  $4+5+3=12:3=4$

Oʻquvchilarni baholashda ball ular egallashlari lozim boʻlgan bilim, koʻnikma va malakalardan kelib chiqib belgilanadi. Masalan: «Hujayra va uning tarkibiy qismlari» mavzusida oʻquvchilar quyidagi bilim, koʻnikma va malakalarga ega boʻlishlari lozim:

– oʻsimliklarni hujayralardan tuzilganligini bilish;

– hujayra qanday tarkibiy qismlardan iboratligini bilish;

– hujayra qobigʻining tuzilishi va vazifasini tushuntira olish;

– sitoplazmaning oʻziga xos xususiyatlarini bilish;

– magʻizning tuzilishi va vazifasini tushuntira olish;

– plastidalarining tuzilishi va xillarini bilish;

– vakuol va uning vazifasini bilish.

## Nazariy savollarga berilgan javoblarni baholash mezonlari

№	Baholash mezonlari	Baho
1.	Savollar mazmunan tula ochib berilsa, tushunchalar to'liq va aniq yoritilsa.	5
2.	Javoblar asosan to'g'ri, lekin izchillik buzilgan, qonuniyatlar va nazariyalar tavsifida qisman noaniqliklar bo'lsa.	4
3.	Javoblar qisman to'g'ri, tushunchalarni izohlashda bir qancha xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa.	3
4.	Javoblar to'g'ri xulosalanmagan, fikrlar chalkash, tushunchalarda xatolar ko'p.	2
5.	Tushunchalar noto'g'ri talqin etilgan, javoblar xato bo'lsa.	1

## Amaliy ish va laboratoriya mashg'ulotlarini baholash mezonlari

№	Baholash mezonlari	Baho
1.	Laboratoriya ishini bajarish ketma-ketligiga rioya etilgan holda to'g'ri va to'liq bajarilgan, rasm va jadvallar to'g'ri ifodalangan, to'g'ri xulosalanmagan bo'lsa.	5
2.	Ishni bajarish ketma-ketligiga rioya etilgan. Tajribalar to'liq bajarilgan, lekin natijalarni ifodalashda kichik xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa.	4
3.	Ishni bajarish ketma-ketligiga to'liq rioya etilmagan. Ish qisman to'g'ri bajarilgan, lekin natijalar rasm va jadvallarda ifodalangan bo'lsa.	3
4.	Jihozlar to'g'ri tanlangan, lekin ishini bajarish ketma-ketligiga rioya etilmagan, ishini bajarishga to'g'ri yondashilmagan bo'lsa.	2
5.	Jihozlar to'g'ri tanlanmagan, ish noto'g'ri bajarilgan.	1

Amaliy ishlar va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur laboratoriya jihozlari, preparatlar va boshqa materiallar o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlanadi.

### 1-bilet

1. O'simliklarning hayotiy shakllari.
2. Gulning tuzilishi.
3. Qo'l lupasining tuzilishi va uning ahamiyati.

### 2-bilet

1. Gullarning xilma-xilligi.
2. Hujayra va uning tarkibiy qismlari.
3. Shtativli lupaning tuzilishi va ahamiyati.

### 3-bilet

1. O'simliklar hujayrasining xilma-xilligi.
2. To'pgullar.
3. Mikroskopni ishchi holatga tayyorlash.

#### **4-bilet**

1. Hujayralarning hayotiy faoliyati.
2. Gullarning changlanishi.
3. Piyoz po'sti hujayrasidan preparat tayyorlash va mikroskop ostida kuzatish.

#### **5-bilet**

1. Hosil qiluvchi va asosiy to'qima.
2. O'simliklarning urug'lanishi.
3. Chigit tuklaridan preparat tayyorlash va mikroskop ostida kuzatish.

#### **6-bilet**

1. Jamg'aruvchi va mexanik to'qima.
2. Meva va uning xillari.
3. Gerbarylardan foydalanib ildiz turlarini tushuntiring.

#### **7-bilet**

1. Bug'doydoshlar oilasi.
2. Ikki urug'pallali o'simliklar urug'ining tuzilishi.
3. Qoplovchi to'qimani mikroskop ostida kuzatish.

#### **8-bilet**

1. O'tkazuvchi to'qima.
2. Piyozdoshlar oilasi.
3. Bir urug'pallali o'simliklarning tuzilishini urug'lar kolleksiyasi orqali tushuntiring.

#### **9-bilet**

1. Ildizning tashqi va ichki tuzilishi.
2. Urug'ning tarkibi.
3. Gerbary tayyorlash.

#### **10-bilet**

1. Ildizning o'sishi va nafas olishi.
2. Urug'larning nafas olishi.
3. Bargning hujayraviy tuzilishini mikroskop ostida kuzatish.

#### **11-bilet**

1. Ildizning tuproqdan suv va mineral moddalar shimishi.
2. Bakteriyalar tuzilishi va hayoti.
3. Shakli o'zgargan novdalarni o'zaro taqqoslang.



### **12-bilet**

1. O'g'itlar.
2. Kasallik paydo qiluvchi bakteriyalar.
3. Gul qismlarini ko'rsating va tushuntiring.

### **13-bilet**

1. Novda.
2. Loladoshlar oilasi.
3. Mog'or zamburug'larini mikroskop ostida kuzatish.

### **14-bilet**

1. Kurtak.
2. Qoqio'gdoshlar oilasi.
3. Achitqi zamburug'larini mikroskop ostida kuzatish.

### **15-bilet**

1. Poyalarning xilma – xilligi.
2. Qalpoqchali zamburug'lar.
3. O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitob»iga kiritilgan o'simliklar.

### **16-bilet**

1. Poyaning ichki tuzilishi.
2. Parazit zamburug'lar.
3. O'simliklar dunyosini muhofaza qilish.

### **17-bilet**

1. Poyaning bo'yiga o'sishi.
2. Lishayniklarning tuzilishi.
3. Yerda o'simliklar dunyosining rivojlanishi.

### **18-bilet**

1. Poyaning eniga o'sishi.
2. Ranodoshlar oilasi.
3. Bir hujayrali suv o'tlarni mikroskop ostida kuzatish.

### **19-bilet**

1. Poyada oziq moddalarning harakatlanishi.
2. Karamdoshlar oilasi.
3. Ko'p hujayrali suvo'tlarni mikroskop ostida kuzatish.

### **20-bilet**

1. Shakli o'zgargan yer osti novdalari. Piyozbosh.
2. Funariya yo'sini.
3. O'zbekistonda botanika fanining rivojlanish tarixi.

### **21-bilet**

1. Tugunak.
2. Dala qirqbo'g'imi.
3. Ochiq joyda ekiladigan o'simliklar.

### **22-bilet**

1. Ildizpoya.
2. Zuxrasoch qirqqulog'i.
3. Xona o'simliklari.

### **23-bilet**

1. Barglarning tashqi tuzilishi.
2. Archa va qarag'ay.
3. Ko'p hujayrali suvo'tlarni mikroskopda ko'rish.

### **24-bilet**

1. Oddiy va murakkab burglar.
2. Sho'radoshlar oilasi.
3. Bir urug' pallali o'simliklarning tuzilishini urug'lar kolleksiyasi orqali tushuntiring.

### **25-bilet**

1. Novdada barglarning joylashishi.
2. Gulxayridoshlar oilasi.
3. Gulning tuzilishi.

### **26-bilet**

1. Barglarning ichki tuzilishi.
2. Burchokdoshlar oilasi.
3. Achitki zamburug'ini mikroskopda ko'rish.

### **27-bilet**

1. Barglarda organik moddalarning hosil bo'lishi.
2. Ituzumdoshlar oilasi.
3. Mikroskop bilan ishlash qoidalari.

### **28-bilet**

1. Barglarning nafas olishi.
2. Tokdoshlar oilasi.
3. Yopiq urugʻli va ochiq urugʻli oʻsimliklarni taqqoslang.

### **29-bilet**

1. Barglarning suv bugʻlatishi.
2. Qovoqdoshlar oilasi.
3. Oʻsimliklar aniqlagichi bilan ishlash.

### **30-bilet**

1. Xazonrezgilik.
2. Ziradoshlar oilasi.
3. Urugʻning nafas olishi.

Nashriyot litsenziya raqami AI № 154. 14.08.2009.

2014-yil 6-fevralda bosishga ruxsat etildi.

Bichimi 60x90<sup>1/16</sup>. Tayms garniturası. Ofset bosma.

2,25 shartli bosma tobog‘i. 1,98 nashr tobog‘i.

raqamli buyurtma. Adadi 200 000 nusxa.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining  
G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.  
100128. Toshkent. Shayxontohur ko‘chasi, 86.

**www.gglit.uz E-mail: iptdgulom@sarkor.uz, info@gglit.uz**